



**“TURBO”, “TURBO DAY” va “TURBO NIGHT” xizmatlarini taqdim etish shartlari**

1. “TURBO DAY”, “TURBO NIGHT” va “TURBO” xizmatlari faqat jismoniy shaxslar uchun taqdim etiladi.
2. “TURBO DAY” xizmatlariga faqat Internet xizmatlarining cheksiz trafikli tarif rejalaridan foydalanuvchi abonentlar ulanishi mumkin. “TURBO NIGHT” va “TURBO” xizmatlariga faqat Internet xizmatlarining cheklangan trafikli tarif rejalaridan foydalanuvchi abonentlar ulanishi mumkin.
3. “TURBO DAY”, “TURBO NIGHT” va “TURBO” xizmatlari abonent hisobida qo'shimcha xizmatlar uchun yechib olishga yetarli mablag'lar bo'lganda, shuningdek, joriy oy uchun abonent to'lovi to'langan hollarda taqdim etiladi.
4. “TURBO DAY”, “TURBO NIGHT” va “TURBO” xizmatlarini faqat 1, 3 yoki 7 sutkaga (24, 72, 168 soat) sotib olish mumkin.
5. Internet xizmatlarining amal qilish muddatini keyingi hisob-kitob davriga o'tkazish bilan “TURBO DAY”, “TURBO NIGHT” va “TURBO” xizmatlarini faollashtirish mumkin emas. Xizmatlarni hisob davri yakunlanishigacha qolgan kunlar sonidan ko'p bo'limgan davrga sotib olish mumkin. Masalan: agar abonentning Internet xizmatlari uchun hisob-kitob davri 10 avgust kuni soat 15:00 dan 10 sentyabr 15:00 gacha belgilangan bo'lsa va 9 sentyabr kuni soat 15:00 dan keyin (24 soatli) “TURBO” xizmatini faollashtirishga harakat qilinganda, faollashtirishning imkoniyati bo'lmaydi. Bunda, xizmat faollashtirilishi 9 sentyabr kuni soat 15:00 gacha yoki 10 sentyabrdan boshlab 15:00 dan keyin amalga oshiriladi.
6. “TURBO DAY”, “TURBO NIGHT” va “TURBO” xizmatlarini sotib olish faqat “Shaxsiy kabinet” yoki MyUZTELECOM mobil ilovasi orqali amalga oshiriladi.
7. Mablag'larni yechib olish jarayoni SMS-xabar orqali tasdiqlash kodi olingan vaqtida amalga oshiriladi. Tasdiqlangan xizmatni bekor qilish mumkin emas.
8. “TURBO DAY”, “TURBO NIGHT” va “TURBO” xizmatlari faollashtirilganda, ular amal qilish davrida Internet tarmog'iga, “TAS-IX” va “Uz-IX”ga kirish tezligi tarif rejasida belgilangan tezlikdan qat'i nazar, faollashtirilgan xizmatlar tezligiga - 8, 40, 100 yoki 300 Mbit/sekundga teng bo'ladi.
9. “TURBO DAY”, “TURBO NIGHT” va “TURBO” xizmatlarining amal qilish muddati tugashi bilan Internet, “Uz-IX” va “TAS-IX” tarmog'iga kirish tezligi tarif rejasida belgilangan tezlikka muvofiq tiklanadi.
10. Agarda “TURBO DAY”, “TURBO NIGHT” va “TURBO” xizmatlaridan biri SMS-xabar orqali tasdiqlash kodi yordamida faollashtirilgan, biroq undan foydalanilmagan bo'lsa, yechib olingan pul mablag'lari qaytarilmaydi.
11. Bir vaqtning o'zida “TURBO DAY”, “TURBO NIGHT” va “TURBO” xizmatlaridan faqat bittasi faollashtirilishi mumkin, yangi xizmatni xarid qilish avval faolashtirilgan xizmatning amal qilish muddati tugaganidan so'ng amalga oshirilishi mumkin.

12. “TURBO DAY”, “TURBO NIGHT” va “TURBO” xizmatlarini faollashtirish SMS-xabar orqali olingan kod tasdiqlangan vaqtdan boshlab, amalga oshiriladi.
13. Xizmat amal qilishi davrida trafik tariflanmaydi.
14. “TURBO DAY” xizmati soat 00:00 dan 12:00 gacha sotib olinganda, ushbu xizmatdan faqat soat 12:00 dan 00:00 gacha foydalanish mumkin. Xizmat soat 12:00 dan 00:00 gacha sotib olinganida, xizmatdan ushbu xizmat faollashtirilgan vatqtdan boshlab, soat 00:00 gacha uning amal qilish muddatini uzaytirmasdan foydalanish mumkin.
15. “TURBO NIGHT” xizmati soat 12:00 dan 00:00 gacha sotib olinganda, ushbu xizmatdan faqat soat 00:00 dan 12:00 gacha foydalanish mumkin. Xizmat soat 00:00 dan 12:00 gacha sotib olinganida, xizmatdan ushbu xizmat faollashtirilgan vatqtdan boshlab, soat 12:00 gacha uning amal qilish muddatini uzaytirmasdan foydalanish mumkin.
16. “TURBO NIGHT” xizmati soat 00:00 dan keyingi vaqt oralig‘ida sotib olingan taqqirda, trafik hajmi sotib olingan vaqtdan boshlab, o‘rnatilgan tarif rejasiga muvofiq tarifikatsiya qilinadi.
17. “TURBO DAY”, “TURBO NIGHT” va “TURBO” xizmatlarini faollashtirish orqali abonent ushbu xizmatlar ko‘rsatilishi bo‘yicha shartlar bilan o‘zining to‘liq roziligini tasdiqlaydi.